



HECH BIR IMKONIYATI CHEKLANGANNIG IMKONIYATI
CHEKLANMAGAN: O'KSIK QALBLARNING HAYOTGA QAYTISHI VA
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLAR

Yuldashboyeva Mubinabonu Dilshodbek qizi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy imkoniyati cheklangan insonlarning jamiyatda o'z o'rnini topishi va ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayonlari o'rganiladi. Shaxsning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchi, oiladagi tarbiya uslublari va jamiyatning munosabati rivojlanish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi — har qanday jismoniy cheklovga qaramay, inson irodasi va ruhiy quvvati cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini yoritib berishdir.

Kalit so'zlar: iroda, o'z-o'zini baholash, oila tarbiyasi, jamiyat munosabati, imkoniyat, matonat, orzu, ruhiy quvvat

Abstract: In this article, people with physical disabilities find their place in society and the processes of social and psychological adaptation. It is analyzed how self-confidence of a person, family upbringing methods and society's attitude affect the development process. The main goal of the article is to clarify that despite any physical limitation, human will and mental power have unlimited possibilities.

Аннотация: В данной статье люди с ограниченными физическими возможностями находят свое место в обществе и процессы социальной и психологической адаптации. Анализируется, как уверенность человека в себе, методы семейного воспитания и отношение общества влияют на процесс развития. Основная цель статьи – выяснить, что, несмотря на любые физические ограничения, воля и умственные силы человека обладают неограниченными возможностями.

Insonning imkoniyati u bosib o'tgan jismoniy qadamlari bilan emas, balki qalbidagi orzularining kengligi va maqsadlarining ulug'vorligi bilan o'lchanadi. Jamiyatda ko'p hollarda jismoniy holati boshqalardan farq qiladigan insonlarga nisbatan "imkoniyati cheklangan" degan qarash mavjud. Biroq, haqiqiy cheklov tanada emas, balki insonning ruhiyatida va o'zligiga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Ko'plab insonlar o'z jismoniy holatidan noqulaylik his qilib, odamlardan qochishni, yolg'izlikni va tushkunlikni tanlashlari kuzatiladi. Bunday "qobiqqa o'ralish" holati insonni dunyo go'zalliklarini ko'rishdan to'sib qo'yadi. Buning asosiy sabablaridan biri — shaxsning o'zini kamsitishi va hayotiy qiyinchiliklarda faqat salbiy jihatlarni ko'rishidir.

Shaxsning bunday tushkun holatga tushishida atrof-muhit va oila muhitining ta'siri beqiyosdir. Masalan, ota-onalar farzandini haddan tashqari avaylab, har bir qadamini nazorat qilsalar, inson mustaqil fikrlash va harakat qilish qobiliyatidan mahrum bo'ladi. Doimiy g'amxo'rlik insonni o'z kuchiga ishonmaslikka va boshqalarga qaram bo'lib qolishga o'rgatib qo'yadi. Shuningdek, jamiyatdagi achinish hissi bilan yo'g'rilgan



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



munosabat ham shaxsning g'ururiga ta'sir etadi va uni ijtimoiy muhitdan uzoqlashishga majbur qiladi. Vaholanki, imkoniyati cheklangan shaxslarga achinish emas, balki teng huquqli inson sifatida munosabatda bo'lish talab etiladi. Har bir shaxs bilim olishga, ishlashga va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga to'laqonli haqlidir.

Inson qachonki o'zini boricha qabul qilsa va jismoniy kamchiliklarini emas, balki ichki kuchli tomonlarini kashf eta olsa, barcha to'siqlar barham topadi. Tarix sahifalarida jismoniy imkoniyati cheklangan bo'lsa-da, ilm-fan va san'atda buyuk natijalarga erishgan shaxslar juda ko'p. Ular haqiqiy kuch tanada emas, balki inson irodasida ekanligini amalda isbotlaganlar. Agar inson o'z qobig'idan chiqib, hayotga ongli ravishda nazar tashlasa, u har qanday jismoniy holatda ham yuksak cho'qqilarni zabt eta oladi.

Xulosa qilib aytganda, hech bir insonning imkoniyati aslida cheklangan emas. Inson qachonki orzu qilishdan va harakatdan to'xtasa, o'shanda uning imkoniyatlari tugaydi.

O'z-o'zini kamsitish o'rniga, oldinga katta maqsadlar qo'yish hayotni mazmunli qiladi. Jamiyat esa bunday shaxslarga cheklovi bor inson sifatida emas, balki irodasi mustahkam shaxs sifatida qarashi zarur. Qalb va ong erkin ekan, har qanday cho'qqini zabt etish imkoniyati mavjud bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Frankl V. Hayot mazmunini izlab.
2. Adler A. Inson ruhiyati va uning rivojlanishi.
3. Shaxsiy kuzatuvlar va ijtimoiy-psixologik tajribalar.

